

Mirzag'aniyeva Mohidil Abdurashid qizi, Farg'ona davlat universiteti 1-kurs
magistranti e-mail:mohidilboqijonova90@gmail.com Orcid-0009-0003-5928-380X



“DEVONI HIKMAT” NING IJODIY USLUBI

<https://zenodo.org/records/19841842>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asarining xalqona soddalik, tasavvufiy mazmun va og‘zaki nutqqa yaqinlik jihatlari talqin qilinadi. Shuningdek, “Devoni hikmat”ning badiiy uslubi turkiy adabiyotda yangi diniy-ma’naviy yo‘nalish boshlab bergan. Asardagi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishi, ularning xalq ruhiyatiga yaqinligi va tarbiyaviy mohiyatini tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Ijodiy uslub, tasavvuf, xalqona ifoda, badiiylik, hikmat.

“THE CREATIVE STYLE OF DEVONI HIKMAT”

Annotation: This article discusses the stylistic features of Ahmad Yasawi’s Devoni Hikmat. It first interprets the folk-like simplicity, the Sufi thematic depth, and the closeness to oral speech characteristic of Yasawi’s wisdoms. It also notes that the artistic style of Devoni Hikmat initiated a new religious-spiritual direction in Turkic literature. The article analyzes the use of artistic imagery in the work, its resonance with the spirit of the people, and its educational significance.

Keywords: Creative style, Sufism, folk expression, artistry, wisdom

«ТВОРЧЕСКИЙ СТИЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “ДИВАН-И ХИКМАТ”

Аннотация: В данной статье рассматриваются стилистические особенности произведения Ахмада Яссави «Девони хикмат». В начале статьи анализируются такие характеристики яссавийских «хикматов», как народная простота, суфийское содержание и близость к устной речи. Кроме того, отмечается, что художественный стиль «Девони хикмат» открыл в тюркской литературе новое религиозно-духовное направление. В работе также анализируются использование художественно-изобразительных средств, их близость к народному мироощущению и воспитательное значение произведения.

Ключевые слова: Творческий стиль, суфизм, народное выражение, художественность, мудрость.

Kirish. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida tasavvufiy yo‘nalishning shakllanishi va rivojida Ahmad Yassaviy nomi alohida o‘rin tutadi. U XII asrda yashab ijod etgan buyuk mutasavvif shoir, orif va murshid sifatida ma’naviy hayotning yuksalishiga beqiyos hissa qo‘shgan. Uning “Devoni hikmat” asari turkiy adabiyotning qadimiy adabiy yodgorliklaridan biri bo‘lib, unda shoir o‘zining falsafiy, axloqiy va tasavvufiy qarashlarini xalq tili orqali ifoda etgan.

Tasavvuf adabiyotida hikmat janrining asoschisi bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy o'zining to'rtliklari orqali insonlarga ma'rifat ziyosini tarqatishga, Haqqa yetish yo'llarini belgilab berishga bel bog'ladi. Hikmatlar tili sodda va ravonligi, oddiy xalq ommasiga ham birdek tushunarli va manfaatliligi, ayniqsa, ular turkiy tilda yozilganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XII asrda hikmatnavislik an'anasi vujudga kela boshladi. Yassaviydan so'ng "Devoni hikmat" uslubida ijod qilish an'anaviy tus oldi. Yassaviy ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri "Devoni hikmat"dagi to'rtliklarning xalqchil va soddaligidadir. Zero, Abdurauf Fitratning ta'kidlashicha, Yassaviyning "tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutqon yo'llaridir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalg'an she'rlar bilan barobar" [1, 31] yurgan. Bundan tashqari professor Abduqodir Hayitmetov "Devoni hikmat"ning ijodiy uslubiga alohida to'xtalib, qarashlarini bayon qiladi: "... yetti-sakkiz asr davomida qo'ldan tushmay o'qib kelinayotgani, oddiy tilda katta hayotiy haqiqat, insof va adolat haqida kuyunib she'r tili bilan so'zlashi g'oyat maroqlidir..., uning biron so'zi, iborasi tushinarsiz emas, xuddi kecha yozilganday..., she'riy badiiy ifodasi g'oyat turkona bo'lib, u kabi faktlar xalqchilik tendentsiyasi avval o'zbek diniy adabiyotida yaqqol ko'zga tashlana boshlaganini va XI-XII asrlardayoq yuzaga kelganini yaqqol namoyon etadi" [2, 13-14.]

"Devoni hikmat" faqat diniy-tasavvufiy mazmundagi she'rlarning ifodalanishi bilangina emas, balki xalqona badiiy ifoda vositalari, o'ziga xos ritmik tuzilma va chuqur ma'no qatlamlari bilan ham ajralib turadi. Xoja Ahmad Yassaviy "turk shoirlarining dohiylaridan" deya ta'riflagan Abdurahmon Sa'diy shunday yozadi: "Yassaviy turk qavmlarining haqiqiy ma'nosi bilan chin shoirlaridan(lirik) va xalq klassik shoirlaridandir. Ul g'oyat hassos, ilhom va hayoli g'oyat tabiiy va yengil o'qishli bir shoirdir. Yassaviy yuragi butun umriga ruhiy va ma'naviy ishq bilan lovullab yonaturg'on she'riy bir o'tdir. Ilohiy she'rda va muhabbat hissiyotida ul shu yo'ldagi boshqalarning yuraklarin o'rtag'uvchi, kuydiruvchi bir hikmat yolqinidir" [3, 11]. Shuning uchun ham mazkur asarning ijodiy uslubini o'rganish nafaqat Yassaviy ijodini, balki butun turkiy adabiy tafakkur tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Natija va muhokama. Ahmad Yassaviy o'z asarida insonning ma'naviy kamolotga yetishi, nafsni tiyish, Allohga muhabbat va haqiqatga intilish masalalarini markaziy o'ringa qo'yadi. Har bir hikmat — bu o'ziga xos ma'rifiy-didaktik she'r bo'lib, unda ilohiy haqiqatni anglashning turli bosqichlari tasvirlanadi. Yassaviy nazarida insonning hayotdagi maqsadi — Allohni tanish (ma'rifat), unga sadoqat bilan xizmat qilish va insoniy kamolotga erishishdir. Bu g'oya "Devoni hikmat"dagi ko'plab baytlarda quyidagicha ifodalanadi:

Oshiqlarg'a ishqin berib oshiq qildi,
Rahmon egam o'z yo'lida sodiq qildi,
Chin tolibni dargohig'a loyiq qildi
Loyiq bo'lib tariqatg'a kirdim mano.[4, 250]

Shoir dunyoviy nafs, mansabparastlik, boylik ortidan quvish kabi illatlarni qoralaydi, insonni poklik, sabr-toqat va tavozega da'vat etadi. Shu jihatdan, asarning g'oyaviy asosida tasavvuf falsafasining "tariqat – ma'rifat – haqiqat" bosqichlari yotadi.

"Devoni hikmat" to'plamidagi sherlar xalqona uslubda ifoda etilgan. Xalqona uslubni yuzaga chiqaruvchi omillar sifatida asarda xalq jonli tili oddiy inson tafakkuri, xalqning turmush tarsi, urf-odatlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, oddiy xalq har bir xayrli ish boshlanishidan

avval “Bismillah” so‘zini qo‘llaydi. Xoja Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”ni xalq tafakkuri inonch va e‘tiqodi bilan bog‘liq hodisa bo‘lgan “Bismillah” bilan boshlaydi:

Bismillah deb bayon aylay hikmat aytib,
Toliblarga dur-u guhar sochtim mano.
Riyozatni qottiq tortib, qonlar yutib,
Man daftari soniy so‘zin ochtim mano. [5, 24]

“Devoni hikmat”ning ijodiy uslubini yuzaga chiqaruvchi poetik vositalardan biri badiiy san‘atlardir. Xoja Ahmad Yassaviy ijodida tashbeh va istiora san‘ati badiiy usul darajasiga ko‘tarilgan. Sharq adabiyotida keng tarqalgan badiiy san‘atlardan biri bu – tashbeh hisoblanadi. “Tashbeh ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa, xususiyatlarni ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiylik(sifat, belgi yoki funksiya) nuqtayi nazardan qiyoslash”[6, 370.] U arabcha so‘z bo‘lib, “o‘xshatish”, “taqqoslash” ma’nolarini ifodalaydi. Tashbeh nutqni go‘zallashtiradi, tasvirni jonlantiradi, fikrni ta’sirli qiladi. “Devoni hikmat”da tashbeh san‘ati -dek, -day, singari, go‘yo, yanglig‘, sifat singari vositalar orqali qo‘llanilgan:

Ishq bobini Mavlom ochqoch manga tegdi,
Tufroq sifat hozir bo‘l deb bo‘ynum egdi.
Boron sifat malomatning o‘qi tegdi,
Paykon olib, yurak bag‘rim teshtim mano.[7, 25]

Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”da tasavvufiy ma’nolarni chuqur ifodalash uchun istiora san‘atidan ham keng foydalangan. Chunki adib hikmatlarida ruhiy poklanish, Allohga bog‘lanish, foniy dunyodan voz kechish singari mavzularni ramziy tilda bayon qiladi. Istiorada so‘z va iboralar asl ma’nosini yo‘qotib, boshqa ma’noni ifodalaydi. Hikmatlarda qo‘llangan “ishq o‘ti” istiorasi Alloh sevgisi – insonni poklaydigan, ruhni uyg‘otadigan ilohiy nur ma’nosida ishlatilgan. Bu o‘z navbatida ifodaga go‘zallik baxsh etadi hamda keng ma’nolarni ixcham shaklda ifodalashga yordam beradi. Ayni bu hodisa yassaviylik she’riyatining muhim uslubiy xususiyatlaridan hisoblanadi:

Muhabbatning daryosig‘a cho‘mmag‘uncha,
Ey do‘stlarim, ishq guharin olsa bo‘lmas.
Tong otquncha faryod urub, zor ingramay,
Sarrof bo‘lib ishq durini olsa bo‘lmas.[8, 181]

Mazkur to‘rtlikning har misrasida “muhabbatning daryosi”, “ishq guhari”, “ishq duri” singari istioralar qo‘llangan. Shuningdek, “faryod urib”, “zor ingramay”, “sarrof bo‘lib” kabi bir-biriga yaqin ma’nolarni ifodalovchi birliklar orqali tanosib san‘ati yuzaga kelgan.

Xulosa. Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari tasavvufiy dunyoqarash va xalqona ifoda uyg‘unlashgan nodir ma’naviy yodgorlikdir. Asar o‘ziga xos tuzilishi, obrazlar tizimi, xalq og‘zaki ijodi an‘analari hamda chuqur ma’rifiy mazmuni bilan ajralib turadi. “Devoni hikmat” ijodiy uslubini yuzaga chiqarishda tashbeh va istiora kabi badiiy san‘atlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga ular asarda poetik usul darajasiga ko‘tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ma'naviyat nashriyoti. -Toshkent.: 2000. – 31 b.
2. Hayitmetov A. O'zbek adabiyotida xalqchilik va xalqchil uslub haqida. -O'zbek tili va adabiyoti, 1993. – B.13-14.
3. Abdurahmon Sa'diy . Ahmad Yassaviy (Yassaviy kim edi? Maqolalar va hikmatlardan parchalar). To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi B. Do'stqorayev. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Meros nashriyoti, 1994. -11 b.
4. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, 2018. - 250 b.
5. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, - 2018. -24 b.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'zbekiston, 2002. -370 b.
7. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, 2018.- 27 b.
8. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, 2018. - 181 b

Maxsudova Onorxon, FarDU mustaqil izlanuvchi



**ABDUQAYUM YO'LDOSHEVNING "SUNBULANING ILK SHANBASI"
QISSASIDA SUJET QURILISHI**

<https://zenodo.org/records/19841882>

Annotatsiya: Maqolada Abduqayum Yo'ldoshevning "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida syujet elementlarining joylashuvi tahlil etilgan. Yozuvchi mahorati, syujet turlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: syujet, kulminatsi, tugun, yechim, prolog, epilog, xotima, yakun, ekspozitsiya, xronika, retrospektiv

**СЮЖЕТНОЕ ПОСТРОЕНИЕ В РАССКАЗЕ АБДУКАЮМА
ЮЛДОШЕВА «SUNBULANING ILK SHANBASI»**

Аннотация: В статье анализируется расположение сюжетных элементов в рассказе Абдукаюма Юлдошева «Сунбуланин ильк шанбаси». Мастерство писателя и типы сюжета научно обоснованы.

Ключевые слова: сюжет, кульминация, узел, развязка, пролог, эпилог, заключение, конец, экспозиция, хроника, ретроспектива

**PLOT CONSTRUCTION IN ABDUKAYUM YULDOSHEV'S STORY
"SUNBULANING ILK SHANBASI"**

Abstract: This article analyzes the arrangement of plot elements in Abdukayum Yuldoshev's short story "Sunbulanin Ilk Shanbasi." The writer's skill and plot types are scientifically substantiated.